



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 325-333 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

YENGIL SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OPTIMAL BAHOLASH USULLARI



Musurmonova Mahbuba Omonovna
Qarshi Davlat Universiteti
musurmonovamahbuba07@gmail.com

Annotatsiya: Yengil sanoat korxonalarini samaradorligini optimal baholash usullari korxonaning resurslarini ishlatish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshligini oshirishni usullari ko'rsatilgan. Ushbu baholash usullari korxonaga faoliyatini miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilishga yordam beradi. Asosiy usullar orasida moliyaviy ko'rsatkichlar (daromad, rentabellik, xarajatlar samaradorligi), texnologik ko'rsatkichlar (ishlab chiqarish quvvati, energiya samaradorligi) va mehnat samaradorligi (mehnat unumdorligi, bandlik) mavjud. Yengil sanoat uchun samaradorlikni baholashda ekonometrik model ishlab chiqilgan. Bu usullar korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlab, raqobatli bozorda o'z o'rnini mustahkamlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: yengil sanoat korxonalarini, SWOT va PESTEL tahlillari, optimal baholash usullari, globalashuv, raqamli texnologiya, empirik model, ekonometrik model, prognoz natijalari, axborot tizimi, endogen o'zgaruvchilar, ekzogen o'zgaruvchilar.

METHODS OF OPTIMAL ASSESSMENT OF EFFICIENCY OF LIGHT INDUSTRIAL ENTERPRISES.

Musurmonova Makhbuba Omonovna
Doctoral student of Karshi State University
musurmonovamahbuba07@gmail.com

Abstract. The methods of optimal evaluation of the efficiency of light industrial enterprises, methods of increasing the efficiency of the use of resources, improving product quality, reducing costs and increasing the competitiveness of the enterprise are shown. These evaluation methods help to analyze the company's activities quantitatively and qualitatively. The main methods include financial indicators (income, profitability, cost efficiency), technological indicators (production capacity, energy efficiency) and labor efficiency (labor productivity, employment). An econometric model has been developed to evaluate efficiency for light industry. These methods ensure the stable development of the enterprise and help to strengthen its position in the competitive market.

Key words: light industrial enterprises, SWOT and PESTEL analysis, optimal evaluation methods, globalization, digital technology, empirical model, econometric model, forecast results, information system, endogenous variables, exogenous variables.

МЕТОДЫ ОПТИМАЛЬНОЙ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Мусурмонова Махбуба Омоновна

Докторант Каршинского государственного университета -

musurmonovamahbuba07@gmail.com

Аннотация. Показаны методы оптимальной оценки эффективности предприятий легкой промышленности, методы повышения эффективности использования ресурсов, улучшения качества продукции, снижения затрат и повышения конкурентоспособности предприятия. Данные методы оценки помогают количественно и качественно проанализировать деятельность компании. К основным методам относятся финансовые показатели (доход, рентабельность, экономическая эффективность), технологические показатели (производственная мощность, энергоэффективность) и эффективность труда (производительность труда, занятость). Разработана эконометрическая модель оценки эффективности легкой промышленности. Эти методы обеспечивают стабильное развитие предприятия и помогают укрепить его позиции на конкурентном рынке.

Ключевые слова: предприятия легкой промышленности, SWOT и PESTEL-анализ, оптимальные методы оценки, глобализация, цифровые технологии, эмпирическая модель, эконометрическая модель, результаты прогнозирования, информационная система, эндогенные переменные, экзогенные переменные.

Kirish

Iqtisodiyotni globallashtirish sharoitida yengil sanoat korxonalari samaradorligini optimal baholash usullari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Globallashtirish bilan xalqaro raqobat kuchayadi. Mahalliy yengil sanoat korxonalari global bozorda muvaffaqiyat qozonishi uchun o'z faoliyatining samaradorligini baholash va optimallashtirish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim. Birinchidan, samaradorlikni baholash korxonalar resurslarini maqsadli va samarali yo'naltirishga yordam beradi. Samaradorlik baholash usullari korxonalar uchun zarur bo'lgan resurslarni optimal taqsimlashda katta rol o'ynaydi. Ikkinchidan, yengil sanoat sohasida xom ashyo, ishchi kuchi va kapitalni samarali boshqarish korxonalar xarajatlarini kamaytirishga va foydani oshirishga yordam beradi. Uchunchidan, baholash usullari bu jarayonni tahlil qilish, korxonaning innovatsion darajasini baholash, modernizatsiya natijalarini o'lchash va resurslarni yangilash zarurligini ko'rsatib beradi. To'rtinchidan, optimal baholash usullari, masalan, ko'p mezonli tahlil, iqtisodiy ko'rsatkichlar, samaradorlik indekslari, SWOT va PESTEL tahlillari yordamida yengil sanoat korxonalari uchun samarali qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Bu korxonaning bozor talablari va ichki resurslariga mos ravishda rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Beshinchidan samaradorlikni optimal baholash usullari yordamida korxonalar mahsulot sifatini xalqaro talablar darajasida ushlab turishga erishadi. Bu esa eksport imkoniyatlarini kengaytiradi va korxonani xalqaro bozorda barqaror o'sishga undaydi. Umuman olganda, yengil sanoat

korxonalari samaradorligini optimal baholash usullari globallashuv jarayonida korxonalarni muvaffaqiyatli boshqarish, raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro bozorda mustahkam o'rin egallash uchun muhim ahamiyatga ega.

Globallashuv bilan ko'plab mamlakatlar yengil sanoat mahsulotlari uchun xalqaro standartlarni joriy etmoqda. Bu uchun yengil sanoat korxonalari yangi texnologiya va usullarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirishi lozim.

Tadqiqot metodlari

Yengil sanoat korxonalari samaradorligini globallashuv sharoitida optimal baholash uchun bir nechta usullar mavjud bo'lib, ular korxonaning ichki va tashqi ko'rsatkichlarini baholash hamda samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilishda qo'l keladi.

- Moliya ko'rsatkichlari tahlili
- Ko'p mezonli baholash usullari
- SWOT va PESTEL tahlillari
- Benchmarking
- Data envelopment analysis(DEA)
- Balanslangan ko'rsatkichlar tizimi
- Ishlab chiqarish tizimini tahlil qilish
- Qayta quriluvchi tahlil usullari
- Qayta ishlangan qiymat

Bu usullar korxonaning moliyaviy barqarorligini va samaradorligini tahlil qilishda o'llaniladi. Asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- o Rentabellik ko'rsatkichi (ROI, ROE);
- o Likvidlik ko'rsatkichi (Current Ratio, Quick Ratio);
- o Solvency Ratio – qarz va kapitalning o'zaro nisbatini tahlil qilish;
- o Qisqa va uzoq muddatli qarzlarni qoplash qobiliyati;

Korxonaning samaradorligini turli ko'rsatkichlar bo'yicha kompleks tahlil qilishga imkon beradi. Bu usulda quyidagi baholash usullari keng qo'llaniladi:

- o **AHP (Analitik iyerarxiya jarayoni)** – korxonada faoliyatining asosiy mezonlarini aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini baholash.
- o **TOPSIS (Ideal yechimga yaqinlikka asoslangan tartiblash usuli)** – samaradorlik ko'rsatkichlari ichida optimal darajaga yaqinlarini tanlash.

SWOT (kuchli va kuchsiz tomonlar, imkoniyatlar va tahdidlar) va PESTEL (politika, iqtisodiyot, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillar) tahlillari yengil sanoat korxonalari uchun raqobatbardoshlik omillarini aniqlashda yordam beradi. Bu usullar korxonada faoliyatining tashqi va ichki jihatlarini har tomonlama o'rganish uchun qo'llaniladi. Benchmarking usuli o'xshash korxonalar bilan solishtirish orqali samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash imkonini beradi. Bu usulda xalqaro miqyosda raqobatchi korxonalar tajribasini o'rganish va ular bilan taqqoslash yo'li bilan rivojlanish imkoniyatlari aniqlanadi. Samaradorlikni o'lchashning matematik usullaridan biri bo'lib, u korxonaning resurslarini foydali ishlatishini tahlil qiladi. Bu usul yordamida korxonada

natijalarining kiritilgan resurslarga nisbatan qanchalik samarali ekanligi aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlarini baholash imkonini beradi. Bunda to'rt asosiy o'lchov qo'llaniladi:

- Moliya ko'rsatkichlari
- Mijozlar qoniqishi
- Ichki biznes jarayonlari samaradorligi
- Innovatsiyalar va o'quv jarayoni

Korxonada ishlab chiqarish jarayonidagi ortiqcha vaqt va resurslarni aniqlash va ularni bartaraf etish orqali samaradorlikni oshirishga erishiladi. "Lean" tizimida ishlab chiqarishdagi har bir bosqichning optimal samaradorligi baholanadi va ortiqchalar minimallashtiriladi. Yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini yangi, zamonaviy yechimlar bilan qayta qurish imkoniyatini beradi. Reengineering usulida korxonaning barcha jarayonlari qayta ko'rib chiqiladi va eng samarali model tanlanadi.

Maqolada tarmoqni rivojlantirish muammolarini makro, mezo, mikro darajalarida tadqiq etish, tarkibiy takomillashuvning eng samarador ssenariylarini muvaffaqiyatli modellashtirish, ishlab chiqarish faoliyatining natijaviylik sur'atini, iqtisodiy samaradorligini oshirishda o'zaro integratsiyalashuv darajalarini belgilashning ekonometrik meyorlarini aniqlash, tarmoqni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, geografik-demografik, ekologik sharoitlarini baholash usullarini takomillashtirish asosida istiqbolni ishonchli rejalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, iqtisodiyot sektorini kishilik jamiyati manfaatlariga mos ravishda rivojlantirishning iqtisodiy modellarini asoslash maqsadida ekonometrik modellashtirishni tanladik.

Yengil sanoat maqsulotlari, shuningdek, mebelsozlik, aviatsiya, avtomobil, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida, jumladan, qishloq xo'jaligi, transport, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda ishlatiladi¹. Yengil sanoat tarmoqlari strukturaviy jihatdan 3 turga bo'linadi. Bular:

- xomashyo - terini qayta ishlash, zig'ir, paxta va boshqalar ishlab chiqarish;
- yarim mahsulot - bo'yash, to'qimachilik;
- tayyor mahsulotlar - galanteriya, poyabzal, kiyim-kechak.

Yengil sanoat tarmog'i ishlab chiqarishi ichki tarmoqlar xalqasidan tarkib topganligi bu tarmoqning o'ziga xos xarakteristikasini vujudga keltiradi. Bunda tarmoq korxonlari faoliyati o'zaro resurs ta'minoti bo'yicha chuqur integratsiyalashadi va provardida turli tayyor va yarimtayyor mahsulotlar ishlab chiqaradi.

Natija va muhokama

Hozirgi kunda tarmoqning mamlakatlar yalpi ichki mahsulotidagi ulushi, hususan AQShda 0,3 foiz, Italiyada 2,7 foiz, Ruminiyada 1,5 foiz, Germaniyada 0,6 foiz, Fransiyada 0,5 foiz, Portugaliyada 2,9 foiz, Turkiyada 9,9 foiz, Xitoyda 6,7 foiz, Hindistonda 2,3 foiz, Pokistonda 8,5 foiz, Yaponiyada 1,3 foiz, Tailandda 4,5 foizni tashkil etadi². Rivojlangan Yevropa mamalakatlar (YEI)da yengil sanoat mahsulotlari aylanmasi 150 mlrd. AQSh

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yengil_sanoat

² <http://www.textilesinthenews.org/wp-content/uploads/2023/03/2023-State-of-Industry-Speech-FINAL.pdf>

dollaridan, investitsiyalar hajmi 5 mlrd AQSh dollaridan, eksport hajmi 60 mlrd AQSh dollaridan, import hajmi 106 mlrd AQSh dollaridan ortib ketdi. To'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish korxonalarini soni 143 mingdan ko'p bo'lib, ularda 1,3 mln dan ortiq xodimlar faoliyat yuritmoqdalar³. Jahon yengil sanoatida bandlik ko'rsatkichi Xitoyda 215 mln, Hindistonda 45 mln, Turkiyada 938 ming, Tailandda 583 ming, Rossiya Federativ Respublikasida 300 ming, Italiyada 286 ming, Ruminiyada 147 ming, Polshada 143 ming, Portugaliyada 119 ming, Germaniyada 118 ming, Fransiyada 78 ming kishini tashkil etadi. Yevropa davlatlari, Turkiya, Marokash, Shimoliy va Janubiy Amerika, Arab davlatlari, Koreya va Yaponiyaga mato, trikotaj va tayyor kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlarini eksport qilishda 2024-yil 1-yanvargacha bo'lgan muddatga transport xarajatlarining 70 foiz kompensatsiya uchun subsidiyalar berilishi⁴ belgilab qo'yildi.

Manbalarda⁵ ishlab chiqarish, xususan yengil sanoat korxonalarini faoliyatini baholash masalasi bo'yicha bir qator mahalliy va xorij olimlari, soha mutaxassislari, ekspertlarning turlicha yondoshuvlari, takliflari, konsepsiyalari mavjud bo'lsada, biroq ularda umumiy jihatlar bilan birga ko'plab farqlanuvchi tomonlar ham kuzatiladi. Avstraliya janubiy Kvinslend universiteti professori S.Nahidning fikricha⁶ korxonalar faoliyatining samaradorligini bir ko'rsatkichga jamlash mumkin va bu ko'rsatkichlar turlicha tanlanishi mumkin. Uning tadqiqotlarida ushbu ko'rsatkichlar sifatida ekologik samaradorlik hamda kompaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy mavqesini ifoda etuvchi indeksdan foydalangan. Javeriana universiteti (Kolumbiya) mutaxassisi, iqtisodchi-texnolog olimlar J.Varquez va G.Brunoning yondoshuvi⁷ga ko'ra, korxonalar samaradorligini baholashning har qanday usuli ma'lum bir umumiy konseptual asosga ega bo'lishi kerak. Ko'pgina tadqiqotchi olimlar Kurosava (Kazukio Kurosava) yondoshuvi, ya'ni "korxonaning iqtisodiy samaradorligini hisoblashning umumiy formulasi shunday bo'lishi kerak: iqtisodiy samaradorlik - bu investitsiyalar natijasida olingan qisman natija va unga erishish uchun sarflangan xarajatlar"⁸ tamoilidan kelib chiqib baholash usullarini takomillashtirishga harakat qilishgan. Ularning mazkur konseptual harakati samaradorlik nazariyasiga asoslanadi. Unda ikkita tushuncha farqlanadi: samaradorlik (nisbiy ko'rsatkich) va ta'sir (mutlaq ko'rsatkich). Umuman olganda, ta'sir ishlab chiqarish faoliyati natijasidir. Samaradorlik esa ta'sirning nisbati va uni olish xarajatlari bilan tavsiflanadi⁹.

Umuman olganda olimlar, tadqiqotchilar, ekspertlar fikrlaridan kelib chiqilsa,

³ Facts & Key Figures 2022. Of the European textile and clothing industry. EURATEX, Economic and Statistics. P-32 // https://euratex.eu/wp-content/uploads/EURATEX_FactsKey_Figures_2022rev-1.pdf

⁴ Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Toshkent sh., 2023-yil 10-yanvar, PF-2-son. / <https://lex.uz/uz/docs/-6351331/>

<https://data.egov.uz/data/6107cf112a2e256d868e86c8>

⁵ 1) Jie G., et al. (2023). Media attention, green technology innovation and industrial enterprises' sustainable development: The moderating effect of environmental regulation. *Economic Analysis and Policy*. Volume 79, September 2023, Pages 873-889. // <https://doi.org/10.1016/j.eap.2023.07.003> 2)

⁶ Sultana N., et al. (2023). Investigating the prospect of cleaner production in informal enterprises: A scientific assessment of environmental burdens and economic efficiency. *Heliyon*. Volume 9, Issue 3, March 2023, e14583 // doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e14583

⁷ Vaskuez J. et al (2019). A conceptual framework for the eco-efficiency assessment of small- and medium-sized enterprises. *Journal of Cleaner Production*. Volume 237, 117660. // <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2019.117660>

⁸ Simanov A.Yu. (2022). Sovremenniy podxod k otsenke funktsionirovaniya predpriyatiy malogo i srednego biznesa. *Moskovskiy ekonomicheskij jurnal*. 8/2022 // doi: 10.55186/2413046X_2022_7_8_492

⁹ 1) Zhenlin Dong et al. (2023). The impact of Confucianism on the efficiency of enterprises green innovation. *Finance Research Letters*. Volume 58, Part A, 104233 / <https://doi.org/10.1016/j.frl.2023.104233> ; 2) Sultana N. et al. (2023). Investigating the prospect of cleaner production in informal enterprises: A scientific assessment of environmental burdens and economic efficiency. *Heliyon*. Volume 9, Issue 3, March 2023, e14583; 3) Incekara M. (2022). Determinants of process reengineering and waste management as resource efficiency practices and their impact on production cost performance of Small and Medium Enterprises in the manufacturing sector. *Journal of Cleaner Production*. Volume 356, 1 July 2022, 131712 / <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2022.131712>

korxonalar samaradorligini baholash tizimining optimalligi "samaradorlik" tushunchasini qay darajada to'liq mohiyatan anglashga, uni to'g'ri tavsiflashga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Finlandiya Aalto universiteti professorlari S. Aleksii va R.Kaipia¹⁰larning ilmiy tadqiqotlarida yengil sanoat korxonalarining aylanma iqtisodiyotga o'tish jarayoni global miqyosida iqtisodiy bosimga duch kelishi natijasida qiymat zanjirining aylanmaligini nazorat qilish imkonini beruvchi kuchli pozitsiyaga egalik qilish yoki biznes ekotizimlarida ittifoq qilish orqali erishish mumkinligi keltiriladi;

Mamlakatimiz yengil sanoatida xorijiy tarmoq korxonalarini, hamda to'qimachilik va tikuvchilik sanoatiga ixtisoslashgan savdo tashkilotlari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik natijasida milliy korxonalarimiz texnik va texnologik jihatdan eng zamonaviy darajada yangilanmoqda. Bu esa xalqaro standartlar talabiga javob beradigan keng turdagi yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniyatini kengaytirmoqda. O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarining "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasiga a'zolik ulushi keskin ortib bormoqda. "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-son qarori bilan tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda uning a'zolari 2 mingga yaqin korxonalar, shundan 1522 tasi tikuv-trikotaj, 448 tasi to'qimachilik korxonalarini va 6 tasi mashinasozlik korxonalarini hisoblanadi¹¹. Mamlakatimizda yengil sanoat korxonalarini faoliyatining ahamiyatlik darajasini tushunish uchun so'ngi yillardagi statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratilsa, Respublika miqyosida 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 458,2 trln. so'mni, yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,2 % ini tashkil etgan. Jami ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari tarkibida 20,3 foizini mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi mahsulotlari, 23,2 foizini metallurgiya sanoatining mahsulotlari, 17,9 foizini to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari tashkil etadi¹².

Umumiy olganda korxonalar samaradorligini baholash yondoshuvlari bir-biridan samaradorlik tushunchasining qabul qilingan tavsifidan, davrning ijtimoiy-iqtisodiy-siyosiy muhitidan kelib chiqib farqlanishi uzoq muddatli tendensiyada kuzatilishi, mazkur jihatlarning ahamiyatini pasaytiradi, biroq, ayni vaqtda korxonalar samaradorligini baholash tushunchasi tizimlashgan holda umumiy, yaxlit tavsifga ega bo'la boshladi. Bu faqat korxonalarining turli tomonlari va turli tomonlardan qaralishi asosida shakllanmoqda.

Yengil sanoatning rivojlanish tendensiyasi ko'rastkichlari mohiyatan hududiy xarakterga ega. Mazkur "hududiy xarakter" manbalarda tendensiyani baholashda ko'p ma'noli qo'llanilishi keltirildi¹³. Bu esa tarmoqni mintaqaviy jihatdan tadqiq etishda umumiy xususiyatlarga e'tibor qaratishni talab etadi. Hududiy jihatdan yengil sanoatning

¹⁰ Aleksii S. et al (2022). Implementing circular business models in the textile and clothing industry. Journal of Cleaner Production. Volume 378, 10 December 2022, 134492 / <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2022.134492>

¹¹ https://uzts.uz/oztoqimachilik_sanoati/

¹² O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi axborotnomasi/Toshkent – 2023 y., 519 b.

¹³ Chenchen W. et al. (2022). An evaluation of the international trade-related CO2 emissions for China's light industry sector: A complex network approach. Sustainable Production and Consumption. Volume 33, September 2022, Pages 101-112 / <https://doi.org/10.1016/j.spc.2022.06.023>

rivojlanish tendentsiyasini tizimli ko'rsatkichlar asosida baholash amaliyoti keng qo'llaniladi¹⁴.

Manbalarda, Respublikada ishlab chiqarish sanoatining tarkibiga ko'ra to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2022 yilda 13,6 foizni, kiyim ishlab chiqarish 3,7 foizni, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish 0,5 foiz, mebel ishlab chiqarish 0,9 foizni tashkil etgan¹⁵. 2010 yilga nisbatan tarkibiy ulush ko'rsatkichlari to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha 3,21 foizga kamaygan, kiyim ishlab chiqarish bo'yicha 1,75 foizga, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha 0,2 foizga, mebel ishlab chiqarish bo'yicha 0,3 foizga oshgan. Qashqadaryo viloyatida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2022 yilda 26,33 foizni, kiyim ishlab chiqarish 2,06 foizni, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish 0,2 foiz, mebel ishlab chiqarish 0,58 foizni tashkil etgan. 2010 yilga nisbatan tarkibiy ulush ko'rsatkichlari to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha 8,07 foizga, kiyim ishlab chiqarish bo'yicha 2,04 foizga, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha 0,6 foizga kamaygan, mebel ishlab chiqarish bo'yicha 0,48 foizga oshgan (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekiston respublikasi va Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarish tarkibida yengil sanoat ishlab chiqarish hajmining ulushi, foizda¹⁶

Yillar	O'zbekiston Respublikasida				Qashqadaryo viloyatida			
	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	Kiyim ishlab chiqarish	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	Mebel ishlab chiqarish	To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	Kiyim ishlab chiqarish	Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	Mebel ishlab chiqarish
2010	16,86	2,00	0,28	0,57	34,40	4,10	0,80	0,10
2011	18,06	2,13	0,33	0,56	38,10	3,90	0,70	0,10
2012	17,30	2,25	0,34	0,51	37,00	4,10	0,80	0,10
2013	15,87	2,08	0,62	0,62	37,30	4,10	0,80	0,10
2014	15,89	1,92	0,77	0,72	39,60	3,90	0,80	0,10
2015	16,87	2,02	0,97	0,78	36,80	4,00	0,80	0,10
2016	14,58	4,72	1,07	1,50	20,80	6,90	0,10	0,80
2017	13,89	5,06	1,17	1,25	24,30	6,20	0,60	1,20
2018	13,10	4,08	0,87	0,89	29,80	5,90	0,90	1,00
2019	11,75	3,60	0,62	0,90	27,00	5,60	0,70	1,10
2020	12,00	3,40	0,53	0,69	27,00	5,00	0,50	0,90
2021	13,85	3,59	0,55	0,81	34,80	4,00	0,30	0,90
2022	13,65	3,75	0,48	0,87	26,33	2,06	0,20	0,58

1-jadvaldan ko'rib turganimizdek O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida 2010-2022 yillar davomida to'qimachilik, kiyim-kechak, teri va unga tegishli mahsulotlar, shuningdek, mebel ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha, 2010-yilda 16,86 birlikda bo'lgan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2022-yilda 13,65 birlikka tushgan. 2010-2022 yillarda

¹⁴ Ильясов, Б.Г. и др. Моделирование системных показателей оценки эффективности научных школ. Программные продукты и системы. № 2 (110), 2015. – стр. 5-12

¹⁵ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2/O'zbekiston> Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari

¹⁶ O'zRes Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuizilgan

umumiy tendensiya pasayish tomonga bo'lganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, 2016 yilda keskin pasayish kuzatilgan (14,58). Qashqadaryo viloyati bo'yicha: 2010-yilda 34,40 birlik bo'lgan ishlab chiqarish 2022-yilda 26,33 birlikka pasaygan. Bu viloyatda ham pasayish tendensiyasi bor, ammo 2021-yilda yana o'sish kuzatilgan (34,80). Kiyim ishlab chiqarish, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha: 2010-yildan boshlab kiyim ishlab chiqarish barqaror ravishda o'sib kelgan, 2022-yilda 3,75 birlikka yetgan. 2016 yilda 4,72 birlikgacha ko'tarilib, keyinchalik biroz pasayish va barqarorlashuv kuzatilgan. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: Viloyatda ishlab chiqarishning yuqori darajasi 2016 yilda (6,90 birlik) kuzatilgan, so'ngra sekin pasayish boshlangan va 2022-yilda 2,06 birlikka tushgan. Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha: Ishlab chiqarish hajmi 2010 yildagi 0,28 birlikdan 2022 yilda 0,48 birlikka ko'tarilgan. Biroq, 2017 yilda yuqori darajaga yetgan (1,17 birlik), keyinchalik pasaygan. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: Viloyatda teri mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari kam miqdorda, ba'zi yillarda o'sish kuzatilgan, lekin 2016 yildan boshlab pasaygan va 2022 yilda 0,20 birlikgacha tushgan. Mebel ishlab chiqarish, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha: Mebel ishlab chiqarish ko'rsatkichlari o'sib borib, 2010 yildagi 0,57 birlikdan 2022 yilda 0,87 birlikka ko'tarilgan. Ayni paytda eng yuqori ko'rsatkich 2016 yilda (1,50 birlik) bo'lgan. Qashqadaryo viloyati bo'yicha: Viloyatda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lsa-da, 2017 yildan boshlab o'sish kuzatilgan va 2022 yilda 0,58 birlikka yetgan. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ikkala hududda ham umumiy pasayish kuzatilmogda. Kiyim ishlab chiqarish, O'zbekiston bo'yicha bu sohada o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, Qashqadaryoda 2016 yildan boshlab pasayish kuzatilmogda. Teri mahsulotlari, bu mahsulot ishlab chiqarishda O'zbekiston bo'yicha o'sish kuzatilgan, lekin Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarish pasaygan. Mebel ishlab chiqarish: Ikkala hududda ham mebel ishlab chiqarishning o'sishi kuzatilgan, lekin ko'rsatkichlar nisbatan past darajada. Bu tahlil asosida ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining pasayishi va o'sishi mintaqaviy va milliy darajada turlicha ekanligini ko'rish mumkin. Bu o'zgarishlar har bir sohaning alohida rivojlanish dinamikasiga bog'liqdir.

Ko'rish mumkinki, korxonalarining iqtisodiy samaradorligi mezon qiymatlaridan ancha yuqori. Mahsulot rentabelligi va aktivlar rentabelligi korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari haqida tushuncha beradigan muhim moliyaviy ko'rsatkichlardir, lekin ular biznesning turli jihatlariga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, mahsulot rentabelligi alohida mahsulotlar yoki mahsulot qatorlari tomonidan ishlab chiqarilgan foydani o'lchaydi. U mahsulotdan olingan daromadni ushbu mahsulotni ishlab chiqarish, sotish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar bilan taqqoslaydi. Ushbu ko'rsatkich kompaniyaga qaysi mahsulotlar uning umumiy rentabelligiga ko'proq hissa qo'shayotganini va qaysi biri kamroq muvaffaqiyatli bo'lishi mumkinligini tushunishga yordam beradi. Aktivlarning rentabelligi kompaniyaning umumiy aktivlaridan foyda olish samaradorligini baholaydigan kengroq moliyaviy ko'rsatkichdir. U korxonaning sof daromadini uning o'rtacha umumiy aktivlariga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi. U daromad olish uchun o'z aktivlaridan qanchalik yaxshi foydalanayotganini ko'rsatadi. Agar korxonaning mahsulotlari yuqori rentabellikga ega bo'lsa, bu korxonaning umumiy rentabelligiga va o'z navbatida uning sof daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yuqori sof daromad, o'rtacha umumiy aktivlarga bo'linganda, yuqori aktivlar

rentabelligiga olib keladi.

Xulosa

Yengil sanoat korxonalari samaradorligini optimal baholash usullari korxonaning samarali faoliyatini ta'minlashda va resurslardan oqilona foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu baholash usullari nafaqat moliyaviy barqarorlik va rentabellikni tahlil qilish, balki texnologik yangiliklarni joriy etish va mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi. Optimal baholash jarayonida turli ko'rsatkichlar va zamonaviy tahliliy usullar, jumladan, iqtisodiy-matematik modellar, VBA (qiymatli baholash usuli) va boshqa optimallashtirish metodlaridan foydalanish, korxonalarga yanada samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada, yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirib, barqaror va innovatsion rivojlanishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv qo'll. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
2. Akromov E.A Korxonalar moliyaviy holati taxlili. – T.: Moliya, 2003
3. Н.Ш.Кремер, Б.А.Путко . Эконометрика. Москва 2008г.327с.
4. Н.И.Шанченко “Лекции по Эконометрики” учебное пособие, Ульяновск 2008г. 140с.
5. Кремер Н.Ш. Эконометрика: Учебник. – М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2008. –562 с.
6. Juraev T.J., Xudoyberganov R.X., Vorisov A.K., Mansurov X. Oliy matematika asoslari. Darslik. T. O'zbekiston, 1999, 290 bet.
7. Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, Toshkent sh., 2023-yil 10-yanvar, PF-2-son. / <https://lex.uz/uz/docs/-6351331/> / <https://data.egov.uz/data/6107cf112a2e256d868e86c8>
8. Qashqadaryo viloyati moliya boshqarmasi va “Oqsaroy Vortex” MChJ, “Khilal Textile” MChJ, “Cottonroad” MChJ, “LT Textile International” MChJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan
9. <http://www.textilesinthenews.org/wp-content/uploads/2023/03/2023-State-of-Industry-Speech-FINAL.pdf>
- Facts & Key Figures 2022. Of the european textile and clothing industry. EURATEX, Economic and Statistics. P-32 14. https://euratex.eu/wp-content/uploads/EURATEX_FactsKey_Figures_2022rev-1.pdf
10. <https://uzts.uz/oztoqimachilik/sanoat/>
11. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi axborotnomasi/ Toshkent – 2023 y., 519 b
12. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2/O'zbekiston> Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy ma'lumotlari

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

